



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ILMIY MAKTABI

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

scientific electronic journal

2023 yil, 2-son
Volume 3, Issue 2, 2023



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI



LABORECONOMICS.UZ

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 2-2023

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

TOSHKENT-2023

Tahririyat Kengashi raisi:**(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:**(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayeviyya, i.f.n., dots.
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.f.d., (PhD), dots.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)
Keynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

Q.X.Abdurahmonov	<i>Transformatsion iqtisodiyotda mehnat bozorini sun'iy intellekt vositasi asosida rivojlantirish.....</i>	5-19
Z.G.Shakarov	<i>Sun'iy intellektni inson kapitali va mehnat bozoriga ta'sirini ekonometrik baholash.....</i>	20-31
S.B.G'oyipnazarov	<i>Макроэкономические тенденции занятости населения Узбекистана.....</i>	32-49
N.T.Shayusupova	<i>Мехнат bozori va inklyuzivlik tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.....</i>	50-64
S.S.Amirdjanova	<i>Обоснование перечня видов деятельности и профессий, востребованных в экологически ориентированной экономике.....</i>	65-73
T.A.Mahmudov	<i>Hududlar mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlash.....</i>	74-86

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

G.Q.Abdurahmanova	<i>Mahalliy davlat boshqaruv organlarida inson resurslarini boshqarish.....</i>	87-102
O.T.Astanakulov	<i>O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlariga kadrlarni jalb qilish va yollash tizimi.....</i>	103-117

INSON KAPITALI

S.A.Bozorova	<i>Kraudfanding platformasida ayollar inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishlari.....</i>	118-131
S.A.Gafurjanova	<i>Развитие человеческого капитала как фактор снижения бедности.....</i>	132-140
D.I.Iskandarova	<i>Human capital development is the basis of society's development.....</i>	141-150

INSON TARAQQIYOTI

Sh.U.Jo'rayeva	<i>Yangi O'zbekistonda aholi turmush darajasining tahlili.....</i>	151-158
-----------------------	--	---------

MIGRATSIYA

B.A.Islamov	<i>O'zbekistonda mehnat migratsiyasi jarayonlarini raqamlashtirishning yangi imkoniyatlari.....</i>	159-174
S.S.Gaziyeva	<i>Tashqi mehnat migratsiyasiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....</i>	175-190

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

Z.M.Jabborova	<i>Jizzax viloyatida kichik biznes va tadbirkorlik sohasida aholi ish bilan bandligini ta'minlash hamda investitsiyalar samaradorligini oshirish yo'llari.....</i>	191-199
----------------------	--	---------

MUNOSIB MEHNAT

S.P.Qurbonov	<i>Xalqaro mehnat bozorida unumli bandlik va bandlik tarkibidagi qiyosiy xususiyatlar.....</i>	200-212
F.A.Doniyorova	<i>Iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlashda aholini ish bilan bandlik darajasini oshirish.....</i>	213-225
N.R.Saidov	<i>Aholini ish bilan bandlik va ishsizlik holati tahlili.....</i>	226-232



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz/>



XALQARO MEHNAT BOZORIDA UNUMLI BANDLIK VA BANDLIK TARKIBIDAGI QIYOSIY XUSUSIYATLAR

Qurbonov Samandar Pulatovich,

Mehnat bozori tadqiqotlar instituti doktoranti

e-mail: s.kurbonov@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a14

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan mamlakatda unumli va mahsuldor bandlikni oshirish bo'yicha tavsiyalarini amalda qo'llash, uni milliy mehnat bozori ko'rsatkichlari asosida hisoblash va tahlil etib borish ko'plab mamlakatlarda kambag'allikka qarshi kurashishdagi muhim vazifalardan biri ekanligini yoritib berildi. Jahon mehnat bozorida mavjud kambag'allik ta'sir doirasidagilar orasida ish bilan band aholi mavjudligi unumli bandlikni hisoblash lozimligiga urg'u beradi. Maqolada unumli bandlik ko'rsatkichlari, tahlili va uni hisoblash usuli batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqola so'ngida unumli bandlikni oshirishga qaratilgan tavsiyalar joy olgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, jahon mehnat bozori, unumli bandlik, kambag'al ishchilar, unumli bandlik taqchilligi.

СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОЙ ЗАНЯТОСТИ И СОСТАВА ЗАНЯТОСТИ НА МЕЖДУНАРОДНОМ РЫНКЕ ТРУДА

Курбанов Самандар Пулатович,

Докторант Института исследований рынка труда

Аннотация. В данной статье показаны пути применения рекомендаций Международной организации труда по повышению плодотворной и производительной занятости в стране. Его расчет и анализ на основе показателей национального рынка труда является одной из важных задач в борьбе против бедности во многих странах. Существующая бедность на мировом рынке труда подчеркивает необходимость расчета производительной занятости, если среди пострадавших есть работающее население. В статье подробно описаны показатели продуктивной занятости, их анализ и методика его расчета. Также в конце статьи даны рекомендации, направленные на повышение производительной занятости.

Ключевые слова: глобализация, мировой рынок труда, продуктивная занятость, бедные работники, дефицит продуктивной занятости.

COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF PRODUCTIVE EMPLOYMENT AND EMPLOYMENT COMPOSITION IN THE INTERNATIONAL LABOR MARKET

Kurbanov Samandar Pulatovich,

Doctoral student of the Institute of Labor Market Research

Annotation. This article shows ways to apply the recommendations of the International Labor Organization to increase fruitful and productive employment in the country. Its calculation and analysis based on indicators of the national labor market is one of the important tasks in the fight against poverty in many countries. The current poverty in the global labor market highlights the need to calculate productive employment if there is a working population among those affected. The article describes in detail the indicators of productive employment, their analysis and the method of its calculation. Also at the end of the article, recommendations are aimed at increasing productive employment.

Keywords: globalization, global labor market, productive employment, working poverty, deficit of productive employment.

Kirish

Iqtisodiyotning globallashuvi mehnat bozorini yangi o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida ko‘rib chiqish zarurligiga olib keldi, zamonaviy dunyo iqtisodiyotidagi mehnat dunyosini o‘rganish yangi yondashuvlarni, konsepsiyalar ishlab chiqishni, yangi uslubiy muammolarni hal qilishni talab qiladi.

Mehnat bozori qonunlariga muvofiq, mehnat bozoriga bir qator sabablarga ko‘ra ham sub‘ektiv, ham ob‘ektiv ravishda kirib kelayotgan mehnatga layoqatli yoshdagi iqtisodiy faol fuqarolar har doim ham bandlik sohasida o‘z o‘rnini topa olmaydilar.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ishsizlikni o‘lchashning ikki yo‘li mavjud. Birinchisi, fuqarolarni ish bilan ta‘minlash xizmatida ro‘yxatdan o‘tkazish natijalariga asoslangan, ikkinchisi – ishchi kuchining doimiy so‘rovlari natijalariga asoslangan bo‘lib, unda ishsizlar holati XMT mezonlari asosida belgilanadi.

Ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, belgilangan va hisoblangan ishsiz aholi soni sezilarli darajada farq qiladi. Buning sababi shundaki, ish joyi bo‘yicha vakolatli organlar tomonidan ishsiz deb rasman tan olingan fuqarolarning soni aslida ularning haqiqiy sonidan ancha past, chunki ularning aksariyati ish bilan ta‘minlash organlarida ro‘yxatdan o‘tmagan.

Har bir davlat o‘zining va xalqaro tajribaga asoslanib, mehnat bozorini tartibga solish usullarini takomillashtirish bilan birga, aholini ish bilan ta‘minlash va aholini ijtimoiy himoya qilish muammolarini hal qilish strategiyasi va taktikasini belgilaydi.

O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda fuqarolarni faol ravishda ish bilan ta‘minlash siyosatini ishlab chiqib, aholining o‘z-o‘zini ish bilan band qilishni rag‘batlantiruvchi pozitsiyalarini kuchaytirdi, bu esa ishsizlik nafaqalarini

ijtimoiy nafaqalar – kambag‘allik ta’siri doirasida bo‘lganlarga moddiy yordam bilan almashtirishga imkon beradi.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) unumli bandlik konsepsiyasi qat’iy asosga ega bo‘lsa-da, u katta o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Endi xodimlar huquqlari, xalqaro mehnat standartlari, ijtimoiy himoya va ijtimoiy muloqot kabi bandlikning tarkibiy qismlari bilan birgalikda muhim siyosiy maqsadga aylanib bormoqda.

Shuningdek, unumli bandlik har tomonlama ma’noga ega bo‘lib, u har qanday mamlakatda amalga oshirilishi aniq va inkor etilib bo‘lmaydigan bandlik turiga aylanib ulgurdi. Uni tadqiq etish esa har bir mehnat dunyosi olimi uchun muhim vazifalardan biridir.

Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) ta’rifiga ko‘ra, unumli ish bilan bandlik bu – “ishchilarga va ularning qaramog‘ida bo‘lganlarga kambag‘allik chegarasidan yuqori iste’mol darajasiga imkon berish uchun mehnatga yetarli rentabellik” beradigan faoliyatdir [ILO, 2012].

Bundan tashqari, bu iqtisodiy o‘shishni ta’minlashni kambag‘allikni kamaytirish bilan bog‘laydigan va ijtimoiy himoya bilan birgalikda kambag‘allikni kamaytirishning asosiy vositasi bo‘lgan hal qiluvchi element hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Kambag‘allik ishchilarga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to‘lash yoki ularning miqdorini oshirish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin, biroq bu – bir tomonlama yondashuv bo‘lib, muammoni to‘la yechimiga imkon bermaydi.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish bandlikni zamonaviy tarmoqlarga yo‘naltirishni va har bir iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshiradigan harakatlar bilan qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi, masalan, texnologiyalarni yangilashga investitsiyalar kiritish, malaka oshirish va hech bo‘lmaganda institutsional imkoniyatlardan unumli foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy rivojlanish va mehnat unumdorligi mamlakatlarning bilim kapitali va innovatsiyalari bilan juda bog‘liqdir, chunki ta’lim, ayniqsa, oliy o‘quv yurti rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda ham mahsuldorlik va iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchisi sifatida qaraladi.

Xalqaro Mehnat tashkilotining “World Employment and Social Outlook: Trends 2023” hisoboti ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yilda dunyodagi ish bilan band bo‘lganlar safidagi 214,3 million kishi kambag‘allik ta’sirida bo‘ldi [World Employment and Social Outlook: Trends 2023], ya’ni kambag‘al ishchilar hisoblandi. Bu shuni anglatadiki, dunyodagi ish bilan bandlarning ahamiyatsiz qismi uchun ish joyi ularni va oila a’zolarini kambag‘allik ta’siriga tushib qolmasligi uchun yetarli emasligi ish joylarida unumsiz bandlik, xususan, daromadning yetishmasligi masalalariga ishora qilinadi.

Iqtisodiy o‘shish sharoitida unumli va mahsuldor bandlik, iqtisodiy faol aholi va ishsizlik tarkibidagi mehnat potentsiali hamda ish bilan band kambag‘allikning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha A.Karnani, E.Herman,

M.Jorjesku, R.Islam, A.Szirmai, A.Lavopa, M.Dekker, S.Byugelsdiyk, R.Gammarano kabi olimlar tizimli tadqiqotlar olib borishgan.

Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning barqaror o'sishi, ish bilan bandlikning o'sishi, qashshoqlik va daromadlar tengsizligining doimiy ravishda pasayishi, inson rivojlanishi ko'rsatkichlarining barqaror yaxshilanishi va barchani asosiy ijtimoiy himoya qilish inklyuziv o'sish va rivojlanishning muhim elementlari hisoblanadi [Herman, E., 2016]. Ishlab chiqarish samaradorligi iqtisodiy o'sish va kambag'allikni kamaytirish o'rtasidagi bog'liqlik sifatida qaraladi [UN, 2019].

Jahon bankining hisobotida [WB, 2013] ish o'rinlari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosi sifatida ta'kidlangan. Rivojlanish siyosatida samarali bandlik va inklyuziv o'sish haqiqatan ham keng tarqalgan bo'lsa-da, unumli va mahsuldor bandlik “global Janubning ko'p qismlarida haqiqatdan ko'ra ko'proq intilish sifatida keng tarqalgan” [Rammelt, C.F.; Leung, M.; Gebru, K.M., 2017].

Aholining ish bilan bandligiga ko'maklashish asosida kambag'allikni qisqartirish – islohotlardagi eng oqilona tanlovlardan biridir.

Bandlik orqali kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ko'pgina olimlar tadqiqot olib borishgan. Masalan, Michigan universiteti professori A.Karnanining tadqiqotida “bandlik orqali kambag'allikni qisqartirish uchta asosiy omilni talab qiladi: ish bilan ta'minlash, mehnat qobiliyatini oshirish va mehnat bozori faoliyati samaradorligini yanada oshirish”. Uning qarashlarida omillar quyidagicha tavsiflanadi [A.Karnani, 2011]:

Birinchi omil kambag'allarning malakalariga mos ish joylarini yaratish orqali mehnat bozorining talabiga qarab “ishlaydi”;

Ikkinchi omil esa, mehnat bozori taklifiga taalluqli bo'lib, ta'lim va kasb-hunar ta'limi dasturlari orqali kambag'allarning ish bilan ta'minlanishini oshiradi;

Uchinchi omil esa mehnat bozori, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, yetarli tahlil uchun ma'lumotlarning yetishmasligi va ishchi kuchining harakatchanligi sababli juda ko'p muammolarga duch kelinmoqda. Shuning uchun mehnat portallarida ishlarni muvofiqlashtirish va joylashtirish bo'yicha xizmatlar kabi dasturlar mehnat bozorini yanada samarali qilishiga yordam beradi va shu bilan bandlikni oshiradi. Ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini, ish qobiliyatini va mehnat bozori samaradorligini oshirish, albatta, tezkor yechim topiladigan oson vazifa emas.

Ijtimoiy himoya tizimlari yaxshi rivojlangan mamlakatlarda unumli bandlik, kambag'allikka mansub ishlaydiganlarni emas, balki faqatgina ishsizlardan tarkib topadi. Ishsizlar safiga qo'shilganlar ham, kambag'allik ta'siriga tushgan band aholi ham unumsiz bandlik ifodalaydi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy sharoit va institutsional omillar ta'sirida barham topadi.

Aholi ish bilan bandligi va turmush darajasiga oid tadqiqotlarida E.Herman, R.Anker, I.Cherneshev, R.Eggar, F.Mehran, J.Ritterlar kabi olimlar unumli va mahsuldor bandlik keng qamrovli va barqaror rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida keltirgan [Herman E., 2016].

“United Nations” Universiteti olimlari A.Zirmay, M.Gibreeysus, F.Guadagno va B.Verspagen unumli bandlik ish o‘rnidagi uchta o‘lchovni; ish haqi, bandlikning barqarorligi va mehnat sharoitlarini o‘z ichiga olgan faoliyat ekanligini tavsiyalashgan [Szirmai A., Gebreeyesus M., Guadagno F., Verspagen B., 2013].

Unumli bandlik – bu qonunchilikda taqiqlanmagan, o‘zining ishlab chiqarish va ijodiy mehnatga doir qobiliyatlaridan foydalangan holda o‘zi va qaramog‘idagilar uchun milliy kambag‘allik chegarasidan yuqori darajadagi iste‘mol uchun kafolatli mehnat daromadi keltiradigan faoliyatdir [S.Qurbonov, 2023].

Unumli bandlik darajasini o‘lchash kambag‘allik holati bilan mutlaq daromadning o‘sishi qanchalik muhimligini tushunishga yordam beradi. Fikrimizcha, ushbu ko‘rsatkich ma‘lum bir pul qiymatiga emas, balki daromadning boshlang‘ich holatiga nisbatan o‘zgarishi haqida ham xabar beradi.

Tadqiqotchi olimlardan Ye.Herman, R.Islam va A.Fosu o‘z ilmiy tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotlar uchun haqiqiy muammo ularning iqtisodiy o‘shish jarayonida bandlik o‘shishini ta‘minlash qobiliyatining cheklanganligidir, deb ta‘kidlashgan [Herman, E., 2014; Islam, R., 2013; Fosu, A., 2017].

Professor R.Islam bandlik o‘shishini ta‘minlash qobiliyatining cheklanganligi bu inklyuziv iqtisodiy o‘shish va rivojlanishning yetarlicha emasligini ta‘kidlaydi [R.Islam, 2013].

Niderlandiyalik professorlar A.Lavopa va A.Szirmai tarkibiy modernizatsiyalash traektoriyalari va mamlakatlarning kambag‘allikdan qutulish imkoniyati o‘rtasidagi aloqani tahlil qilib, zamonaviy sektor hajmini kengaytirish barqaror o‘shishni ta‘minlash uchun yetarli emasligini ta‘kidladi, chunki texnologik bo‘shliqni kamaytirish uchun texnologiyani singdirish jarayoni zarur [Lavopa A., Szirmai A., 2018]. Iqtisodiy rivojlanish va mehnat unumdorligi mamlakatlarning bilim kapitali va innovatsiyalari bilan juda bog‘liqdir [Beugelsdijk S., Klasing, M.J., Milionis P., 2018], chunki ta‘lim, ayniqsa, oliy o‘quv yurti rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda ham mahsuldorlik va iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchisi sifatida qaraladi.

Olim E.Herman tadqiqotida unumli va mahsuldor bandlik keng qamrovli va barqaror rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida keltirilgan [Herman E., 2016].

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma‘lumotlarni guruhlash, analiz va tizimli tahlil, taqqoslash hamda ekspert baholash usullaridan unumli foydalanildi. Bundan tashqari, monografik kuzatuv va uning natijalari tahlili o‘rganilgan.

Kambag‘al ishchilar hisobini yuritish asoslandi va kambag‘al ishchilar daromadi bo‘yicha jahon mehnat bozori ko‘rsatkichlari asosida tahlil amalga oshirildi. Unumli bandlikni taqchilligi kambag‘al ishchilar soniga bog‘liqligi aniqlandi va asoslandi.

Tahlil va natijalar


Ish bilan band bo'lgan holda kambag'allik ta'sir doirasiga tushib qolish holatlarining paydo bo'lishiga asosan, ish haqi miqdori va doimiy mehnat daromadlari hamda mehnat sharoitlari yetarli emasligini sabab qilib ko'rsatish mumkin. Aksincha, ishsizlar yoki iqtisodiy nafaol aholi tarkibiga kirmaganlarning kambag'allik ta'siriga tushishi asosan, mos ravishda ishga joylashish imkoniyatlarining yetishmasligi va ijtimoiy himoyaning yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti prognoz ma'lumotlariga [BMT, 2020] qaraganda, 2050-yilga kelib dunyo aholisi ko'proq shaharlarni yashash joyi sifatida tanlashi va 5 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 65 yoshdan oshgan odamlar sonidan orqada qolishi prognoz qilinmoqda.

2050-yilgacha dunyo aholisi o'sishining yarmini faqat to'qqizta mamlakat kutishi kutilmoqda: Hindiston, Nigeriya, Pokiston, Kongo Demokratik Respublikasi, Efiopiya, Tanzaniya, Indoneziya, Misr va Amerika Qo'shma Shtatlari (kamayish tartibida). Afrikaning Saxara janubidagi aholisi ikki baravar ko'payishi, Yevropada esa kamayishi mumkin.

Shu bilan birga, Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlarida [Herman E., 2016] aholi sonining o'sish sur'atlari pasayib bormoqda: 1960 yillarning oxirlarida yillik ko'rsatkich ikki foizdan yuqori darajaga yetdi, endi u taxminan bir foizni tashkil etadi va 2050-yilga kelib ikki baravar kamayadi.

Jahonda ish bilan band aholi va bandlik bo'yicha jins tarkibi to'g'risidagi statitik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2022-yilda bandlikning kuchli o'sishi jahon bandligining aholi soniga nisbatini 2020-yildagi 54,5 foizdan 56,4 foizga ko'tardi, lekin ushbu ko'rsatkich baribir 2019-yil darajasidan deyarli yarim foiz punktga past hisoblanmoqda (1-rasm).



1-rasm. Jahon ish bilan band aholisi jins tarkibi (2023-2024-yillarda prognoz ko'rsatkichlari), foizda¹

¹ XMT Statistik (ILOSTAT) ma'umotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Dunyo aholisi hali ham o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, ba’zi mamlakatlarda umumiy aholi sonining pasayishi kuzatilmoqda. Deyarli barcha mamlakatlarda aholi keksaymoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotning tarkibiy va innovatsion o‘zgarishlari sharoitida iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini hal qilishning zaruriy talabi band bo‘lganlarning mehnat unumdorligini va samaradorligini doimiy oshirilishini ta’minlash, xodimlarning munosib mehnatda band bo‘lish bilan birga unumli bandligini ham oshirishni talab etmoqda.

Bunday tarkibiy o‘zgarishlar bosqichida aholi daromadlarining o‘shirishini ta’minlaydigan munosib, unumli va mahsuldor bandlikni rag‘batlantirish bo‘yicha choralarni amalga oshirishni ta’minlash siyosatini olib borishga qaratilayotganligi alohida ahamiyatga ega. Raqamli transformatsiyani amalga oshirishda bandlik tarkibi va ish o‘rinlarini optimallashtirish muammolarini hal qilishda alohida rol o‘ynaydi. Bunday sharoitda aholining mehnat bilan unumli bandligini ta’minlashni zamonaviy iqtisodiy mexanizmini shakllantirishning muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblangan unumli mehnatga turtki berishni har tomonlama takomillashtirishdir.

Aholining unumli bandligi darajasini hisoblashda quyidagi formula asosida hisoblashni afzal bilamiz:

$$PE = E - W_{POOR},$$

bu yerda:

E — ish bilan bandlar soni;

W_{POOR} — kambag‘al ishchilar soni.

1-jadval

Jahon mehnat bozoridagi unumli band aholi soni, mln.kishi

Ko‘rsatkichlar	Belgi	2010 yil	2012 yil	2014 yil	2016 yil	2018 yil	2020 yil	2022 yil
Jami ish bilan bandlar soni, mln.kishi	E	2984,9	3053,8	3120,4	3185,5	3263,4	3176,3	3359,4
Jami kambag‘al ishchilar soni, mln.kishi	W_{POOR}	416,7	230	231	251,3	220,2	228,3	231,3
Unumli band aholi soni, mln.kishi	PE	2568,2	2823,8	2889,4	2934,2	3043,2	2948,0	3128,1

Manba: XMT Statistik ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

XMT statistik ma’lumotlaridan ko‘rinib turganidek, 2010-2018-yillarda jahondagi band aholi soni ortib borgan, shunga mos ravishda unumli bandlik darajasi ham o‘sib borish tendensiyasiga ega. 2020-yilda ish bilan band aholi soni 2018-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan kamaydi. Buni jahon mamlakatlarida tarqalgan va mehnat bozori ko‘rsatkichlari o‘zgarishiga sabab bo‘lgan COVID-19 pandemiyasi ta’siri bilan izohlash mumkin.

Unumli bandlik taqchilligini quyidagicha hisoblash maqsadga muvofiq deb

hisoblaymiz:

$$PE_D = LF - PE,$$

bu yerda:

LF — ishchi kuchi soni;

PE — unumli band aholi soni.

2-jadval

Jahon mehnat bozoridagi unumli bandlik taqchilligi, mln.kishi

Ko'rsatkichlar	Belgi	2010 yil	2012 yil	2014 yil	2016 yil	2018 yil	2020 yil	2022 yil
Jami ishchi kuchi soni, mln.kishi	<i>LF</i>	3157,3	3240,9	3306,6	3376,8	3449,2	3411,5	3564,7
Jami unumli band aholi soni, mln.kishi	<i>PE</i>	2568,2	2823,8	2889,4	2934,2	3043,2	2948,0	3128,1
Unumli bandlik taqchilligi, mln.kishi	<i>PE_D</i>	589,1	417,1	417,2	442,6	406,0	463,5	436,6

Manba: XMT Statistik ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2010-2022-yillarda jami ish bilan band kambag'allik ta'siri doirasidagi aholi soni 2568,2 mln.kishidan 3128,1 mln.kishiga, yoki ish bilan band umumiy aholi sonidagi ulushi 81,3% dan 87,8% ga o'zgargan (1- va 2-jadvallar).

Unumli bandlik taqchilligi 2010-yilda jahon mehnat bozorida 589,1 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda ular soni 436,6 mln. kishini tashkil etgan. Unumli bandlikka nisbatan uning taqchilligi ko'rsatkichi 2010-yilda 22,9% ni, 2022-yilda esa 14,0% ni tashkil etgan. Ishchi kuchi soniga nisbatan olganda ham unumli bandlik taqchilligi 2010-yilda 0,7%ni yoki 589,1 mln.kishini, 2020-yilda esa 0,4%ni yoki 436,6 mln.kishini tashkil etgan. Umuman olganda unumli bandlik taqchilligi pasayish tendensiyasiga ega. Bu esa o'z navbatida yangicha xulosalarni beradi: ihsizlik ortib bormoqda, biroq kambag'al ishchilar sonida esa kamayish belgilarini ko'rish mumkin.

3-jadval

Jahon ish bilan band aholisining bandlik tarkibi bo'yicha ulushi, foizda (%)

Bandlik tarkibi	2010 yil	2012 yil	2014 yil	2016 yil	2018 yil	2020 yil	2022 yil
Oylik ish haqi asosida bandlar	48,8	50,2	51,2	52,1	52,7	52,8	53,2
Ish beruvchi sifatida bandlar	2,5	2,5	2,5	2,5	2,6	2,6	2,7
Yakka tartibda band va o'z-o'zini band qilganlar	34,6	33,9	33,7	33,6	33,5	33,8	34,1
Oilaviy tadbirkorlikda bandlar	14,1	13,3	12,6	11,8	11,1	10,8	10,0
Jami:	100	100	100	100	100	100	100

Manba: XMT Statistik ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Xalqaro tashkilotlar² unumli va mahsuldor bandlik taqchilligi va umumiy band bo‘lganlarning zaif qatlami tarkibiga asosan o‘z-o‘zini erkin band qiluvchilar: yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar va oilaviy tadbirkorlikda band bo‘lganlarni kiritishgan (3-jadval).

Jahondagi band aholi tarkibi bo‘yicha 2010-yilda oylik ish haqi asosida bandlar bo‘lganlar ulushi 48,8% ni, ish beruvchi sifatida bandlar bo‘lganlar ulushi 2,5% ni, yakka tartibda band bo‘lganlar, o‘z-o‘zini band qiluvchilar ulushi 34,6% ni, oilaviy tadbirkorlikda band bo‘lganlarning umumiy bandlar tarkibidagi ulushi esa 14,1% ni tashkil etgan. 2010-2022-yillarda bandlik tarkibida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. Xususan, yakka tartibda band bo‘lganlar, o‘z-o‘zini band qiluvchilar va oilaviy tadbirkorlikda band bo‘lganlarning umumiy bandlar tarkibidagi ulushi kamayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. 2022-yilda 2020-yilga nisbatan yakka tartibda band bo‘lganlar, o‘z-o‘zini band qiluvchilar 0,3% punktga, oilaviy tadbirkorlikda band bo‘lganlarning umumiy bandlar tarkibidagi ulushi 0,8% punktga kamaygan.

Tahlillar 2010-2022-yillarda oylik ish haqi asosida bandlar bo‘lganlar va ish beruvchi sifatida bandlar bo‘lganlar ulushi ortib borganligini ko‘rsatmoqda.

Ish bilan band jahon aholisining mamlakatlar daromad taqsimotida bandlik tarkibi bo‘yicha ulushi bir-biridan keskin farq qiladi (4-jadval).

4-jadval

Ish bilan band jahon aholisining mamlakatlar daromad taqsimotida bandlik tarkibi bo‘yicha ulushi³, foizda (%)

Bandlik tarkibi	2010 yil	2012 yil	2014 yil	2016 yil	2018 yil	2020 yil	2022 yil
<i>Past daromadli mamlakatlar</i>							
Oylik ish haqi asosida bandlar	16,2	16,9	17,3	17,5	17,8	18,1	18,0
Ish beruvchi sifatida bandlar	1,5	1,7	1,7	1,7	1,8	1,8	1,9
Yakka tartibda band va o‘z-o‘zini band qilganlar	51,7	51,2	50,6	50,9	51,1	51,3	51,2
Oilaviy tadbirkorlikda bandlar	30,5	30,2	30,4	29,8	29,3	28,8	28,9
Jami:	100	100	100	100	100	100	100
<i>O‘rta darajadan past daromadli mamlakatlar</i>							
Oylik ish haqi asosida bandlar	29,3	31,7	33,0	34,6	35,7	36,3	36,1
Ish beruvchi sifatida bandlar	2,3	2,5	2,5	2,6	2,8	2,8	2,7
Yakka tartibda band va o‘z-o‘zini band qilganlar	51,3	49,8	49,4	48,8	48,7	48,8	48,9
Oilaviy tadbirkorlikda bandlar	17,1	16,0	15,2	14,0	12,9	12,2	12,3
Jami:	100	100	100	100	100	100	100

² Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) URL: <https://www.ilo.org/global/lang--en/index.htm>

³ XMT Statistik ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

4-jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, past, o’rta darajada va yuqori daromadga ega mamlakatlarda bandlik tarkibida oylik ish haqi asosida band bo’lganlar ulushi mos ravishda ortib boradi. Yuqori daromadli mamlakatlarda band aholining asosiy qismi oylik ish haqi asosida band bo’lganlarni tashkil etgan bo’lsa, daromad past mamlakatlarda buning aksi kuzatiladi.

Xususan, 2010-yilda past daromadli mamlakatlarda oylik ish haqi asosida band bo’lganlar 16,2%ni tashkil etgan bo’lsa, yuqori daromadli mamlakatlarda bu ulush 86,3%ni, o’rta darajadan past daromadli mamlakatlarda esa 29,3%ni, o’rta darajadan yuqori daromadli mamlakatlarda bu ulush 54,4%ni tashkil etgan. Bundan, mamlakat daromadi qanchalik yuqori bo’lsa, aholining oylik ish haqi asosida bandlik darajasi shunchalik ortib borishini ko’rish mumkin.

Shuningdek, ish beruvchi sifatida bandlarning umumiy bandlar sonidagi ulushi 2010-yilda past daromadli mamlakatlarda 1,5%, daromadi o’rta darajadan pasroq mamlakatlarda bu ulush 2,3%, daromadi o’rta darajadan yuqori mamlakatlarda bu ulush 2,2%, daromadi yuqori bo’lgan mamlakatlarda emas bu ulush 3,9%ni tashkil etgan. 2022-yil ma’lumotlarida ish beruvchi sifatida bandlarning umumiy band aholi sonidagi ulushi barcha mamlakatlarda o’sish tendensiyasiga ega bo’lgan.

4-jadval (davomi)

Ish bilan band jahon aholisining mamlakatlar daromad taqsimotida bandlik tarkibi bo’yicha ulushi⁴, foizda (%)

Bandlik tarkibi	2010 yil	2012 yil	2014 yil	2016 yil	2018 yil	2020 yil	2022 yil
<i>O’rta darajadan yuqori daromadli mamlakatlar</i>							
Oylik ish haqi asosida bandlar	54,4	55,8	57,2	58,2	59,2	59,6	59,4
Ish beruvchi sifatida bandlar	2,2	2,2	2,2	2,2	2,3	2,3	2,4
Yakka tartibda band va o’z-o’zini band qilganlar	29,2	28,8	28,5	28,4	28,3	28,3	28,2
Oilaviy tadbirkorlikda bandlar	14,1	13,2	12,0	11,1	10,2	9,8	10,0
Jami:	100	100	100	100	100	100	100
<i>Yuqori daromadli mamlakatlar</i>							
Oylik ish haqi asosida bandlar	86,3	86,7	87	87,4	87,6	87,8	87,6
Ish beruvchi sifatida bandlar	3,9	3,7	3,6	3,5	3,4	3,4	3,3
Yakka tartibda band va o’z-o’zini band qilganlar	8,5	8,4	8,3	8,1	8,0	8,0	8,1
Oilaviy tadbirkorlikda bandlar	1,3	1,2	1,1	1,0	0,9	0,8	1,0
Jami:	100	100	100	100	100	100	100

⁴ XMT Statistik ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Ish bilan bandlar tarkibida kambag'allik darajasi jahon mamlakatlarida pasayib borayotgan bo'lsa-da, bu bo'yicha ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda juda cheklangan taraqqiyotga erishilgan. Ushbu mamlakatlarda ish bilan bandlikning yuqori darajada o'sishi, asosan, sifatsiz ish o'rinlari yaratilishi bilan bog'liq bo'lib, ishlayotgan kambag'allar sonining 2020-2021-yillar davomida ko'payishi kutilayotganligi prognoz qilinmoqda. Natijada 2030-yilgacha hamma joyda o'ta qashshoqlikni yo'q qilish maqsadi - Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ning birinchi maqsadi - yanada qiyinroq bo'ladi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iqtisodiy o'sishning yetarli emasligi, bu ko'rsatkich bo'yicha o'rta daromadli mamlakatlardan orqada qolayotgan kam daromadli mamlakatlarda ishchilarning ko'pchiligini moddiy jihatdan yaxshilashning hali imkoni bo'lmagani sabablaridan biridir⁵.

Kambag'allikni qisqartirishda nafaqat aholi bandligini ta'minlash, balki aholining unumli bandligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Daromadi yuqori mamlakatlarda aholi sonidagi o'sish ko'rsatkichlari jahon mamlakatlari o'rtacha ko'rsatkichidan past darajada ekanligi, bu esa o'z navbatida kelgusida ham band aholi sonining o'sish tendensiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsata olmasligi ma'lum. Shuning uchun ham, ushbu mamlakatlarda kambag'allik chegarasidan yuqori darajada umr kechirishni ta'minlay oladigan, barqaror ish haqi, mehnat sharoitlari yuqori darajada ta'minlangan ish o'rinlari hamda yaxshi malaka egasi bo'lish uchun yaratilgan boshqa sharoitlar band aholi tarkibida kambag'allik ta'sir doirasiga tushishdan "himoya qiladi".

Ushbu tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, daromadi yuqori darajada bo'lgan davlatlardan boshqa barcha o'rta va quyi daromadli mamlakatlarda kambag'allik ta'siri doirasida ish bilan band aholi mavjudligini ko'rsatmoqda.

Shuning uchun ham, o'rta va past daromadli mamlakatlardagi kambag'allikni qisqartirishdagi islohotlarida ish bilan band bo'lgan aholi tarkibidagi kambag'allik ta'sir doirasiga tushib qolgan aholi ulushini ham tadqiq etib, statistik hisobini yuritishi - vaziyatga aniq baho berishiga yordam beradi.

Xulosa va takliflar

Unumli bandlik taqchilligi darajasini qisqartirish xalqaro va milliy darajada belgilangan inson taraqqiyoti strategiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Aholi farovonligini moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan eng samarali ijtimoiy siyosatni amalga oshirish maksimal darajada maqsadli tamoyilga rioya qilishni talab qiladi. Shunga ko'ra, aholida unumli va mahsuldor bandligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning namoyon bo'lish mohiyatini o'rganish nihoyatda dolzarbdir. Shu bilan birga, ushbu salbiy ijtimoiy-iqtisodiy hodisaning paydo bo'lishining "ildizlari"ni nafaqat aniqlashga, balki ularni tavsiflashga imkon beradigan maxsus empirik tadqiqotlar lozim.

⁵ World Employment and Social Outlook - Trends 2020. 11-ber.

Shunga ko‘ra, ushbu tadqiqot maqsadlaridan biri – unumli bandlik taqchilligining ma‘lum bir mintaqada tarqalishi geografiyasi, xususiyatlari, hududiy-ijtimoiy rivojlanishga bog‘liqligi kabi omillarini o‘rganish va tahlil qilishdir.

Har bir jarayon ma‘lum bir kuchga, uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kuchlarning kombinatsiyasiga to‘g‘ri keladi, bu kuchlar omillar deb ataladi. Amallar, sabab-oqibat munosabatlar zanjiri, jarayonning miqdoriy va sifat xususiyatlarini tartibga soluvchi shart-sharoitlar birgalikda jarayon mexanizmini tashkil etadi.

Ish bilan band kambag‘allik mavjudligining asosiy sabablari va mexanizmlari, bu birinchi navbatda unumli bandlik taqchilligining bir shakli sifatida namoyon bo‘ladigan kam ish haqi, vaqtinchalik va yarim kunlik mehnat qilish, yollanma xodimning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy holati, uning uy xo‘jaligi tarkibi, mehnat bozori va ijtimoiy ta‘minot tizimidagi turli ko‘rinishdagi salbiy omillarni o‘z ichiga oladi.

Aholining bandlik ortidan keladigan daromadlari quyi chegarasini aniqlash bo‘yicha mavjud muammo va to‘siqlarni tezkorlik bilan aniqlash, chuqur o‘rganish, ilmiy asoslangan xulosalar olish va muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etishga yo‘naltirilgan zamonaviy, ilmiy yondoshuvlarni amaliyotga joriy etishni talab etadi.

Ish bilan bandlar orasida kambag‘allikning mavjudligi odamlarni ish bilan ta‘minlash har doim ham kambag‘allik xavfidan qochish uchun yetarli emasligini isbotlaydi [Georgescu M., Herman E., 2020]. Shuning uchun unumsiz va zaif bandlik tizimidan unumli va mahsuldor bandlik tizimiga o‘tish jarayonlarini jadallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ish bilan band shaxslar tarkibida kambag‘allik ta‘siridagi shaxslar mavjud bo‘lishi va barqarorligi har qanday amaldagi mehnat bozori o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalanmayotganligi to‘g‘risida ogohlantirish vazifasini o‘taydi. Bu esa o‘z navbatida jahon mamlakatlari kurashib kelayotgan kambag‘allikka qarshi chora-tadbirlar uchun yashirin to‘siq hisoblanadi.

Aholi bandligini oshirishda faqatgina son jihatdan emas, balki sifat ko‘rsatkichlariga ham alohida e‘tibor qaratish, bandlik tarkibidagi yashirin zaif bandlikdan shaffof umumli bandlikka asoslanishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aneel Karnani (2011) Reducing poverty through employment. Innovations / Volume 6, Number 2, 2011. p75.
2. Beugelsdijk S., Klasing M.J., Milionis P. (2018) Regional economic development in Europe: the role of total factor productivity. Reg. stud. 2018, 52, 461–476.
3. Fosu A.K. Growth, inequality, and poverty reduction in developing countries: Recent global evidence. Res. Econ. 2017, 71, 306–336.

4. Herman E. (2016) Productive employment in Romania: A major challenge to the integration into the European Union. *Amfiteatru Econ.* 2016, 18, 335–350.
5. International Labour Office - ILO (2012) *Understanding Deficits of Productive Employment and Setting Targets: A Methodological Guide*; International Labour Office, Employment Sector: Geneva, Switzerland, 2012; ISBN 978-92-2-125990-9. P3.
6. Islam R. (2013) *Integrating Productive Employment into the Post 2015 Development Agenda*; Southern Voice on Post-MDG International Development Goals: Dhaka, Bangladesh, 2013; Available online: [http:// southernvoice-postmdg.org/wp-content/uploads/2013/06/SV-OP-3.pdf](http://southernvoice-postmdg.org/wp-content/uploads/2013/06/SV-OP-3.pdf)
7. Lavopa A., Szirmai A. (2018) Structural modernisation and development traps. An empirical approach. *World Dev.* 2018, 112, 59–73.
8. Kalandar Abdurakhmanov (2020) *Labour Economics. Theory and practice.* Tashkent. 650p.
9. Rammelt C.F., Leung M., Gebru K.M. (2017) The exclusive nature of inclusive productive employment in the rural areas of northern Ethiopia. *Work. Employ. Soc.* 2017. p2.
10. Szirmai A., Gebreeyesus M., Guadagno F., Verspagen B. (2013) *Promoting Productive and Sustainable Employment: Elaborating a Knowledge and Research Agenda*; UNU-MERIT: Maastricht, The Netherlands, 2013; p 49-53.
11. United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division (2019). *World Population Prospects 2019.* 46P. p5.
12. WB-World Bank (2013). *World Development Report 2013: Jobs*; World Bank: Washington, DC, USA, 2012.
13. *World Employment and Social Outlook: Trends 2023.* Geneva: International Labour Office, 2023. / https://www.ilo.org/global/research/global-reports/weso/WCMS_865332/lang--en/index.htm
14. Qurbonov S. Unumli bandlik taqchilligi darajasini baholashning kambag'allikni qisqartirishdagi zarurati // "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali №2(10) 2023, 125-135 бетлар.



Tashkent state university of economics

 +998 99 881 86 98

 ilmiymaktab@gmail.com

 Tashkent, Uzbekistan

 www.laboreconomics.uz